

Q	A	R	Q	A	R	A	T	P	K
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Jibljibon, chumchuq, musicha, mayna, burgut, qarqara, qaldirg'och, kaklik...

3. Yakuniy qism(xulosalash va baholash):

-Bugungi darsdan nimalarni bilib oldingiz?

-Sizga nima qiziq bo'ldi?

 **Uyga vazifa:** Siz qushlar haqida yana qanday ertaklarni bilasiz? Misollar keltiring.

5-mavzu: Tulkining hiylasi ko'p

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni "Yo'lbars bilan tulki" tojik xalq ertagi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni kamtarlik va rostgo'ylikka o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: suhbat, so'zlar to'plami, amaliy topshiriqlar

Dars jihozi: suratlar va plakatlar

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-O'tilgan mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriq so'raladi.

"Boyo'g'li va qarg'a" ertagining mazmunini so'zlab bering. Siz qushlar haqida yana qanday ertaklarni bilasiz? Misollar keltiring.



Darsga qiziqtirish uchun o'yin:

"So'zlar to'plami" o'yini



Ushbu qiziqarli o'yin o'quvchilaringizni "qutidan tashqari" o'ylashga majbur qiladi va bir qator mavzular bo'yicha bilimlarini qayta ishlashga undaydi.

Kerakli resurslar: qog'oz parchalari, qalam, ruchka va mavzuga oid tushunchalar ro'yxati .

O'tkazilish tartibi: o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib oling va ulardan qog'ozdagi tushunchalarni yozib olishlarini so'rang. A dan Ng gacha bo'lgan tasodifiy harflarni tanlang va o'quvchilarga tushunchaga qarab, 1-2 daqiqagacha vaqt bering. O'quvchilar har bir tushuncha uchun shu harfdan boshlanadigan so'z o'ylab topishlari kerak. Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, to'g'ri javoblar uchun ball qo'ying. O'yinni turli harflar bilan takrorlash mumkin.

Masalan, 1-guruh uchun:

Tanlangan harf: **B**

Vaqt: 1-2 daqiqa

O'yin davomida o'quvchilar har bir kategoriyaga mos keladigan so'zni topishlari kerak. Kategoriyalar quyidagicha bo'ladi:

Ertakdagi qahramon: Baroqvoy (ertakda uchraydigan qahramon nomi)

Ertakdagi hayvonlar: Bo'ri (ertakda uchraydigan hayvon nomi)

Sehrli obyekt: Bilakuzuk (ertakda uchraydigan sehrli buyum)

Ertakdagi joy: bog' (ertakdagi hudud)

2-guruh uchun:

Tanlangan harf: **O**

Vaqt: 1-2 daqiqa

O'yin davomida o'quvchilar har bir kategoriyaga mos keladigan so'zni topishlari kerak. Kategoriyalar quyidagicha bo'ladi:

Ertakdagi qahramon: Oppog'oy (ertakda uchraydigan qahramon nomi)

Ertakdagi hayvonlar: Ot (ertakda uchraydigan hayvon nomi)

Sehrli obyekt: Oyna (ertakda uchraydigan sehrli buyum)

Ertakdagi joy: osmon (ertakdagi hudud)

Misollarni shunday tashkil etish mumkin, lekin ertaklar mavzusiga qarab tasodifiy so'zlar o'zgartiriladi.



2. Asosiy qism:

Amaliy topshiriq: Darslikdagi rasmlarni kuzatib, ertakdagi umumiy qahramonni aniqlang.

Savollarga javob beriladi va muhokama qilinadi.

-Rasmlar qaysi ertakdan olingan?

-Bu ertaklardagi umumiy qahramon haqida nima deya olasiz?

Mavzuni tushuntirish. Suhbat davom ettiriladi.

-Tulki qahramon bo'lgan yana qanday ertaklarni bilasiz?

-Tulki ertaklarda qanday xislatlari bilan namoyon bo'ladi? Tulkiga ta'rif beriladi.

Matni ustida ishlash.

"Yo'lbars bilan Tulki" ertagi navbatma-navbat o'qitiladi. Ertak yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Tulki nima uchun qocha boshladi?

2. Sizningcha, Tulki nega tosh ustiga chiqib yig'lay boshladi?

3. Yo'lbars nima uchun jordan sakradi?

4. Ertakning qaysi qismi siz uchun qiziq? Fikringizni izohlang.

5. Siz yo'lbarsni nimaga o'xshatasiz? Tulkini-chi?

6. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

7. Agar siz ertakchi bo'lganingizda bu ertagingiz qanday yakun topgan bo'lar edi?

8. Yo'lbars qatnashgan yana qanday ertaklar va multfilmlarni bilasiz?

Lug'at bilan ishlash.

epchil– ishni tez bajaradigan, chaqqon harakatli.

ravona bo'lish–ketish, jo'nash.

darrov–darhol, qisqa vaqt ichida.


Darslikdagi topshiriqlar bajariladi. Ertak qahramonlariga tavsif beriladi.

Tulki- ayyor,...


Yo'lbars- manman,...

“So‘z zanjiri” mashqi.

Berilgan so‘zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan hayvon nomlarini topib, zanjirni davom ettiriladi.



Mashq daftari bilan ishlash. Daftardagi topshiriqlarni bajarish.



Kataklar namunadagidek bo‘yaladi. Tulkinging sifatleri yoziladi. (yovvoyi, ayyor, momiqqina...)

“Raqamlar tilsimi” mashqi.

Bo‘g‘inlarni raqamlar ketma-ketligida joylashtiriladi va maqollar o‘qitiladi.

									0	1	2	3	4
am	ar	e	ar	u	od	a	an	an	o	ar		at	a

									0	1	2
aq	an	an	and	ey	i	am	a	in	and	ey	i

Maqollar mazmuni dars bilan bog‘lanadi.

3. Yakuniy qism (xulosalash va baholash)

- Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
- Darsda nimalarni eslab qoldingiz?

 **Uyga vazifa:** Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. “Mening sevimli ertak qahramonim” mavzusida taqdimot tayyorlang.